



BO'LAJAK O'QITUVCILARING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI MODERNIZATSİYALASH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

PROBLEMS OF MODERNIZING THE SYSTEM FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Ibraimov Xolboy Ibragimovich

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, akademik*

"Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lif va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta'lif tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq. Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonostonasi maktabdan boshlanadi..."

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Annotatsiya.

Mazkur maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlanirish tizimini modernizatsiya qilish zarurati va dolzarbligini tahlil qiladi. Ta’lim jarayonining zamонавий талабларига javob beradigan pedagoglarni tayyorlash uchun innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda kompetentlikka asoslangan yondashuv, ta’lim sifatini oshirish strategiyalari, pedagogik texnologiyalarni joriy etish va amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, modernizatsiya jarayonida duch kelinadigan muammolar, jumladan, ta’lim resurslarining

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimini modernizatsiyalash muammolari

yetishmasligi, kadrlar tayyorlashdagi nomutanosiblik va xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalari, ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: *Kasbiy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilar, ta'lim tizimi, modernizatsiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogik yondashuv, malaka oshirish, amaliy ta'lim, kompetentlikka asoslangan yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, kadrlar tayyorlash, xalqaro tajriba, ta'lim resurslari.*

Annotation.

В данной статье анализируется необходимость и актуальность модернизации системы развития профессиональной компетентности будущих учителей. Раскрывается значение инновационных подходов для подготовки педагогов, соответствующих современным требованиям образовательного процесса. Исследование охватывает вопросы компетентностного подхода, стратегии повышения качества образования, внедрение педагогических технологий и эффективную организацию практических занятий. Также рассматриваются проблемы, возникающие в процессе модернизации, такие как нехватка образовательных ресурсов, диспропорции в подготовке кадров и использование международного опыта. Данная статья может быть полезной для высших учебных заведений, специалистов в области образования и исследователей.

Ключевые слова: *Профессиональная компетентность, будущие учителя, система образования, модернизация, инновационные технологии, педагогический подход, повышение квалификации, практическое обучение, компетентностный подход, педагогические технологии, качество образования, подготовка кадров, международный опыт, образовательные ресурсы.*

Annotation.

This article analyzes the necessity and relevance of modernizing the system for developing the professional competence of future teachers. It highlights the importance of innovative approaches in preparing educators who meet the modern requirements of the educational process. The study addresses issues such as the competence-based approach, strategies for improving education quality, the integration of pedagogical technologies, and the effective organization of practical training. Additionally, it examines the challenges encountered during modernization, including the lack of educational resources, disparities in teacher

preparation, and the utilization of international experiences. This article may be beneficial for higher education institutions, education professionals, and researchers.

Keywords: Professional competence, future teachers, education system, modernization, innovative technologies, pedagogical approach, professional development, practical training, competence-based approach, pedagogical technologies, education quality, teacher training, international experience, educational resources.

Bugun mamlakatimizda barcha sohalarda izchil islohotlar va yangilanish jarayonlari jadal suratlarda olib borilib, yangi uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga munosib poydevor qo'yilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim–taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat", deb ta'riflangan.

Ta'kidlash lozimki, butun dunyoda o'qituvchilar professional faoliyatining turli bosqichlarida ularning kasbiy mahoratini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masala bo'yicha jahonda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqotlar sirasiga Garvard universitetining ta'lim fakultetida joriy qilingan "Xolms guruhi loyihasi"ni misol qilib keltirishimiz mumkin [1]. Ushbu keng qamrovli tadqiqotning birinchi bosqichi "Ertangi kun o'qituvchilari" deb nomlanib o'qituvchilarni professional faoliyatga tayyorlash va ularni jamiyatdagi nufuzini oshirish choralarini izlashga qaratilgan edi.

Bugungi axborot asrida ham ta'lim tizimini isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida o'qituvchilarni professional faoliyatga tayyorlash, jumladan millatlararo madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning integratsiyalanishuvi, axborot uzatish va muloqot qilishda asosiy vosita sanalgan xorijiy tillarga o'rgatish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bundan 60 yil oldin 30 betlik matnni 50 ming km masofaga yuborish uchun 10 kun va 50 dollar kerak bo'lgan. 30 yil oldin bu harakat 1 soat va 30 dollarni talab qilar edi. Bugungi kunga kelib, buni amalga oshirish uchun esa 3 soniya va 1 sent kerak, xolos. Bu ma'lumotlar axborot oqimining jadallashuvini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi 50 yilda axborot tezligi va xajmi 1 mln. martagacha ko'paydi. 70-yillarda inson bilimi xar 10 yilda 2 barobar oshgan bo'lsa, 90-yillarning oxirida esa inson bilimi xar bir yilda ikki barobar oshgan. Bugungi kunga kelib zamonaviy inson, oldingi zamon odami butun umri davomida oladigan ma'lumotlarni bir kunda olmokda.

Bu holat ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Hozirda pedagoglar va bo'lg'usi o'qituvchilar yana bir muammo, kerakli axborotni keraksiz axborotdan, sifatli axboronti sifatsiz axborotdan ajrata olish va ma'lumotlarni ongli tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari talab qilinmoqda. Ananaviy ta'lim paradigmasi (ya'ni qisqa vaqt ichida iloji boricha ko'p axborotni ta'lim oluvchilarga yetkazish) o'rniga rivojlantiruvchi, ilmiy-texnik va texnokratik paradigma g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim muassasalarida ta'lim shaklining o'zgarishi, yangi sharoit va muhitda ishslash zarurati o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talabning ortishi, ularning funksional majburiyatlarining ko'payishi va professional-kommunikativ malakalarini kengayishi extiyojini keltirib chiqarmoqda.

XXI asr ta'limi mazmunida quyidagi masalalar eng muhim tendensiyalar sifatida ko'rib chiqilmoqda [3]:

- hayot davomida o'qish (Lifelong learning);
- ta'limni raqamlashtirish;
- pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish;
- inklyuziv ta'limni rivojlantirish [4].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimini modernizatsiyalashda 2 ta yangi texnologiya: PBL-5 yondashuvi texnologiyasi va 4 "K" texnologiyasidan keng foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

PBL-5 yondashuvi texnologiyasi mazmuni:

- Muammoga yo'naltirilgan o'qitish (Problem-based learning)
- Loyihaga yo'naltirilgan o'qitish (Project-based learning)
- Ishlab chiqarishga yo'naltirilgan o'qitish (Product-based learning)
- Jarayonga yo'naltirilgan o'qitish (Process-based learning)
- Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish (People-based learning)

Ba'zi olimlar PBL-5 yondashuvi konstruktiv, xamkorlikka va kontekst faoliyatga asoslangan, shuningdek, o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqishni orttiruvchi va guruhiy munosabatlarni tarbiyalovchi metodika sifatida ko'rib chiqishadi [3]. PBL-5 yondashuvi nazariyani amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi, qarorlar qabul qilish malakalarini rivojlaniradi, tanqidiy fikrlash darajasini oshiradi, muloqot va muomala qobiliyatlarini rag'batlantirish, masalaning murakkablik darajasini baholashga yordam beradi. Bundan tashqari, ko'pchilik tadqiqotlarda PBL-5 yondashuvi o'quvchilarning chuqurroq bilim olish uchun sharoit yaratishi isbotlangan.

4 "K" texnologiyasi mohiyati:

- tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish (Critical Thinking)
- kreativlik ko'nikmasini rivojlantirish (Creativity)

- kommunikatsiya ko‘nikmasini rivojlantirish (Communication)
- kooperatsiya yani jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini rivojlantirish (Coordinating With Others)

XXI asrning 4 “K” kompetensiyalarini alohida ko‘rib chiqamiz:

2020-yilning yanvar oyida Shveysariyaning Davos shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon Iqtisodiy Forumida keyingi 5 yilda mutaxassislardan talab qilinadigan ko‘nikmalar ro‘yxati e’lon qilingan edi.

Bu ko‘nikmalar miyani chiniqtirib, insonni o‘zining eng kuchli ichki jihatlarini ro‘yobga chiqarishga majbur qiladi. Bu to‘g‘rida “Hayotni o‘zgartirishning 100 xil yo‘li” nomli bestseller kitobida batafsil mulohaza yuritiladi. Ushbu ko‘nikmalar orasidan 4 “K” kompetensiyalarning har to‘rtalasi ham o‘rin olgan.

1. Tanqidiy fikrlash (Critical thinking).

Bu shunday ko‘nikmaki, u hatto egasi oldiga mavjud qoida yoki aniq-ravshan ko‘rinib turgan voqelikka nisbatan 100 foizlik ishonchga ham unga tanqid va shubha bilan qarash shartini qo‘yadi. Ha, aynan tanqidiy nazar jarayon rivoji uchun xizmat qiladi. Albert Eynshteyn aytganidek, “muvaffaqiyat qozonishda hammasi juda oddiy: barcha biror ishni bajarish imkonsiz deb turganida bir jasur odam keladida, ularning fikriga shubha bilan qarab, o‘sha ishni uddalaydi”.

2. Kreativlik (Creativity).

Bu shunday ko‘nikmaki, o‘qituvchiga ulkan ijodiylik va noa’nnaviy tarzda masalaga yechim topish shartini qo‘yadi. Jahondagi barcha muvaffaqiyatlari insonlar, biznesmenlardan tortib rassomlargacha, hunarmandlardan tortib, IT-mutaxassislarigacha, oshpazlardan tortib, muallimlargacha shu ko‘nikma sabab ko‘zga ko‘ringanlar. Kreativlik - bu hali noaniq narsani noan’anaviy, o‘ziga xos tarzda tasavvur qilishni anglatadi.

3. Kommunikativlik (Communication).

Umuman insoniyat evolyutsion taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan: "homo habilis" (tik yuruvchi odam), "homo potentis" (uddaburon odam), "homo sapiens" (aql-zakovatli odam). Bizning davrimizni esa ko‘p tadqiqotchilar "homo loguens" ya’ni so‘zlashuvchi odam deb nomlashni taklif qilishgan. Chunki, xar bir inson ma’lumot uzatish yoki uni qabul qilish jarayonidan chetda emas, bu esa o‘z navbatida professional-kommunikativ faoliyat ahamiyatini yanada oshiradi.

4. Kooperatsiya yani jamoa bo‘lib ishlash qobiliyati (Coordinating With Others).

XXI asrda kooperatsiya ya’ni o‘zaro hamkorlik, kolloboratsiya va integratsiya shu qadar intensivki, alohida olingen shaxs yoki faoliyat turi yakka o‘zi muvaffaqiyatga erishishi dargumon. Siz istalgan mehnat turi bilan band bo‘lar

ekansiz, albatta o‘zgalar bilan hamkorlik qilasiz. Va ushbu xamkorlikni o‘rnata olish va uni boshqarish qobiliyati ish samaradorligingizga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilik faoliyati o‘quvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, rahbariyat va boshqalar bilan hamkorlikni taqazo qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekiston ta’lim tizimini yuqori bosqichga ko‘tarishda o‘zi tanlab olgan taraqqiyot yo‘lidan shaxdam ildamlamoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan va amalgalash oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini tez orada berishiga ishonamiz. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim tizimida doimiy yangilanish va yangi reformalarga ehtiyoj hamisha mavjud. Va bu jarayonni tugal deb aytish imkonsiz. Shunday ekan, zamon talabiga muvofiq o‘zgarishlar va islohotlar o‘z vaqtida qabul qilinishi va muvaffaqiyatli amaliyotga joriy etilishi lozim. Bu harakatni esa-umumxalq xarakatiga aylantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibraimov X., Quronov M. Umumi pedagogika [Matn]. Darslik. T., “Sahhof”, 2023, 416-bet.
2. Ibraimov X., Quronov M., Ibragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., “Sahhof”, 2023.392-bet.
3. Ota-onsa - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov. - Toshkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
4. Пискунова Й.В. Исследования проблем отценки профессиональной компетентности педагога в России и зарубежом // Научные проблемы гуманитарных исследований. – 2009. – №. 8. – S. 76-83.
5. Мандел В.Р. Современные проблемы педагогической науки и образования Директмедиа, 2018.
6. Нуртазин С.Т. и др. Инновационный метод “Проблемно-ориентированного обучения” (Problem-based learning-PBL) // Успехи современного естествознания. – 2013. - Т. 5. - S. 112-114.
7. Tojibaeva K.S. Topical Issues Formation of Inclusive Competence of Future Teachers in the Republic of Uzbekistan //Journal NX. – S. 103-106.